**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# Salat bargi, jingalak bargli endiviya va keng bargli (bataviya) endiviyaning marketingi hamda tijorat sifatini nazorat qilishga doir standart ( FFV-22:2023, IDT)

**Rasmiy nashr**

**O‘zbekiston standartlar instituti**
**Toshkent**

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

`

## So‘zboshi

**1** O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

**2** O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21-iyuldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

**3** Ushbu standart FFV-22:2023 “concerning the marketing and commercial quality control of lettuces, curled-leaved endives and broad-leaved (batavian) endives” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

**4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI**

*Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.*

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**Izoh**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (BMT YeIK) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruhining tijorat standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi va rentabellikni oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMT YEIK standartlari hukumat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, import va eksport qiluvchilar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi va yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mevalar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo har qanday mamlakat Ishchi guruh faoliyatida teng ishtirok etishi mumkin. BMT EEKning qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Salat bargi, jingalak bargli endiviy va keng bargli (bataviya) endiviy mahsulotlariga mo‘ljallangan ushbu standart Ishchi guruhning oltmish oltinchi va oltmish sakkizinchi sessiyalarida ko‘rib chiqilgan hamda qabul qilingan ECE/TRADE/C/WP.7/2008/7 va ECE/TRADE/C/WP.7/2012/8 raqamli hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarning biridan foydalanish tavsiya etiladi

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI**

# SALAT BARGI, JINGALAK BARGLI ENDIVIYA VA KENG BARGLI (BATAVIYA) ENDIVIYANING MARKETINGI HAMDA TIJORAT SIFATINI NAZORAT QILISHGA DOIR STANDART

# СТАНДАРТЫ КАСАЮЩИЙСЯ СБЫТА И КОНТРОЛЯ ТОВАРНОГО КАЧЕСТВА САЛАТОВ, ЭНДИВИЯ КУДРЯВОГО И ЭНДИВИЯ ШИРОКОЛИСТНОГО (БАТАВИЯ)

# STANDARD FOR CONCERNING THE MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF LETTUCES, CURLED-LEAVED ENDIVES AND BROAD-LEAVED (BATAVIAN) ENDIVES

Amalga kiritish sanasi: 01.08.2026

## I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart quyidagilarga nisbatan qo‘llaniladi:

• Quyidagi navlardan yetishtirilgan salat barglari:

• *Lactuca sativa var. capitata L.* - boshli salat (shu jumladan qarsildoq boshli va "Aysberg" turidagi salat barglari),

• *Lactuca sativa var. longifolia Lam*. - uzun bargli salat (Rim yoki Romen salat barglari),

• *Lactuca sativa var. crispa L.* - bargli salat (yoki jingalak bargli salat),

• ushbu navlarning duragaylari (chatishtirilgan turlari);

• *Cichorium endivia var. crispum Lam*. dan yetishtirilgan jingalak bargli endiviy salat navlari (kultivarlari);

• *Cichorium endivia var. latifolium Lam*. dan yetishtirilgan keng bargli (Bataviya) endiviy (eskariol) navlari (kultivarlari).

Ushbu standart sanoatda qayta ishlashga mo‘ljallangan mahsulotlarga, alohida barglar holatida taqdim etilgan mahsulotlarga, ildiz tizimi bilan bo‘lgan salat barglariga yoki tuvaklardagi salat barglariga tatbiq etilmaydi.

## II Sifatga oid qoidalar

Standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi mahsulotning sifat talablarini belgilashdan iborat. Biroq, eksport yoki jo‘natishdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

• yangilik va turgorlik darajasining biroz pasayishi

*Rasmiy nashr*

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• mahsulotning rivojlanishi va tez buziluvchanlik xususiyati tufayli sifati biroz yomonlashishi

Mahsulotga egalik qiluvchi yoki sotuvchi bunday mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan har qanday boshqa usulda namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki bozorga chiqarishi mumkin emas. Mahsulotga egalik qiluvchi yoki sotuvchi ushbu muvofiqlikni ta’minlash uchun javobgar hisoblanadi.

### A. Minimal talablar

Har bir toifa uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan og‘ishlarni inobatga olgan holda, barcha toifalardagi mahsulotlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• butun bo‘lishi

• sog‘lom bo‘lishi; iste’molga yaroqsiz bo‘lib qolgan, chirigan yoki buzilgan mahsulotlar bundan mustasno

• toza va kesilgan bo‘lishi, ya’ni tuproq yoki boshqa yetishtirish muhitidan hamda har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan amalda xoli bo‘lishi

• tashqi ko‘rinishi yangi bo‘lishi

• zararkunandalardan amalda xoli bo‘lishi

• zararkunandalar yetkazgan zararlardan amalda xoli bo‘lishi

• turgor holatida bo‘lishi

• poyalash bosqichiga o‘tmagan bo‘lishi

• ortiqcha tashqi namlikdan xoli bo‘lishi

• yot hid va mazadan xoli bo‘lishi

Salat bargining yetishtirish davridagi past harorat tufayli yuzaga kelgan qizg‘ish rang o‘zgarishiga, agar bu holat salat bargining tashqi ko‘rinishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmasa, ruxsat etiladi. Ildizlar tashqi barglarning asosiga yaqin joydan tekis va silliq kesilgan bo‘lishi kerak. Mahsulot me’yorida rivojlangan bo‘lishi lozim. Mahsulotning rivojlanishi va holati quyidagilarni ta’minlashi kerak:

• tashish va ortish-tushirish ishlariga bardosh bera olishi

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borishi

### B. Tasnifi

Mahsulot quyida belgilangan ikki navga bo‘linadi:

#### (i) Birinchi nav

Ushbu toifadagi mahsulotlar yaxshi sifatga ega bo‘lishi kerak. Mahsulot nav va tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Mahsulot shuningdek quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• to‘g‘ri shakllangan bo‘lishi

• yetishtirish usullari va mahsulot turini inobatga olgan holda zich bo‘lishi

• iste’molga yaroqlilikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shikastlanish yoki buzilishlardan xoli bo‘lishi

• sovuq urishi natijasida yetkazilgan zararlardan xoli bo‘lishi

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Boshli salat barglari bitta yaxshi shakllangan o‘zakka ega bo‘lishi kerak. Biroq, himoyalangan gruntda yetishtirilgan boshli salat barglarining o‘zagi kichik bo‘lishiga ruxsat etiladi. Romen salatlari o‘zakka ega bo‘lishi kerak, uning o‘lchami kichik bo‘lishi ham mumkin. Jingalak bargli endiviy va keng bargli endiviy mahsulotlarining markazi sariq rangda bo‘lishi lozim.

**(ii) Ikkinchi nav**

Ushbu toifaga I toifaga kiritish talablariga javob bermaydigan, biroz yuqorida ko‘rsatilgan minimal talablarga javob beradigan mahsulotlar kiritiladi.

Mahsulot quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• yetarli darajada to‘g‘ri shakllangan bo‘lishi

• iste’molga yaroqlilikka jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadigan shikastlanish va buzilishlardan xoli bo‘lishi

Mahsulot o‘zining sifati, saqlanuvchanligi va tovar ko‘rinishiga xos asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga ruxsat etilishi mumkin:

• rangning biroz o‘zgarishi

• zararkunandalar yetkazgan biroz shikastlanishlar

Boshli salat barglari o‘zakka ega bo‘lishi kerak, uning o‘lchami kichik bo‘lishi ham mumkin. Biroq, himoyalangan gruntda yetishtirilgan boshli salat barglarida o‘zak bo‘lmasligiga ruxsat etiladi. Romen salatlarida o‘zak bo‘lmasligi ham mumkin.

**III. O‘lchamlarga oid qoidalar**

Mahsulot o‘lchami bitta birlikning vazni bilan belgilanadi.

O‘lchamlarning bir xilligini ta’minlash maqsadida, bitta o‘ramdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagi ko‘rsatkichlardan oshmasligi kerak:

**a) Salat mahsulotlari uchun:**

Eng yengil birlik vazni 150 grammdan kam bo‘lganda — 40 gramm
Eng yengil birlik vazni 150 grammdan 300 grammgacha bo‘lganda — 100 gramm
Eng yengil birlik vazni 300 grammdan 450 grammgacha bo‘lganda — 150 gramm
Eng yengil birlik vazni 450 grammdan yuqori bo‘lganda — 300 gramm

**b) Jingalak bargli va keng bargli endiviy mahsulotlari uchun:**

300 gramm

**IV. Qo‘yimlarga oid qoidalar**

Mahsulot sotilishining barcha bosqichlarida har bir partiyada ko‘rsatilgan toifa talablariga javob bermaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan tolerantlikka yo‘l qo‘yiladi.[1]

[1] Muvofiqlikni tekshirish birlamchi yoki birlashtirilgan namunalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Bu tekshirish tavakkal tanlab olingan namunalarning sifati butun partiyaning sifatini aks ettiradi degan taxmin tamoyiliga asoslanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Muvofiqlikni tekshirish bo‘yicha operatsion qoidalarini joriy etish bosqichlarida, shuningdek, ulgurji savdo va tarqatish markazlarida hamda oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosining omborxonalarida operatorlar tomonidan ham qo‘llash tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI HUQUQIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA LITSENZIYA SHARTNOMASI ASOSIDA TAQDIM ETILGAN

**A. Sifat bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan chetlanishlar**

**(i) Birinchi nav**

Ko‘rsatilgan toifa talablariga javob bermaydigan, biroq II toifa talablariga muvofiq keladigan mahsulotlarning umumiy miqdori dona hisobida 10% gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu tolerantlik doirasida II toifa sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlar yoki chirigan mahsulotlarning umumiy ulushi dona hisobida jami 1% dan oshmasligi kerak.

**(ii) Ikkinchi nav**

Ko‘rsatilgan toifa talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan mahsulotlarning umumiy miqdori dona hisobida 10% gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu tolerantlik doirasida chirigan mahsulotlarning umumiy ulushi dona hisobida jami 2% dan oshmasligi kerak.

**B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan og‘ishlar**

Barcha toifalar uchun: o‘lchamga qo‘yiladigan talablarga javob bermaydigan mahsulotlarning umumiy miqdori dona hisobida 10% gacha bo‘lishiga ruxsat etiladi.

**V Tovar ko‘rinishiga oid qoidalar**

**A. Bir xillik**

Har bir qadoq ichidagi mahsulotlar birxil bo‘lishi hamda faqatgina kelib chiqishi, navi yoki tijorat turi, sifati va o‘lchami bir xil bo‘lgan mahsulotlardan tashkil topishi kerak.

Biroq, navi, tijorat turi va/yoki rangi aniq farq qiladigan turli xil salat barglari va/yoki endiviyalar aralashmasini bitta qadoqqa birga joylashga ruxsat beriladi, buning uchun ular sifat jihatidan birxil bo‘lishi va har bir tegishli nav, tijorat turi va/yoki rang uchun kelib chiqishi bir xil bo‘lishi kerak. Bunday aralashmalar holatida o‘lcham bo‘yicha birxillik talab qilinmaydi.

O‘ram ichidagi mahsulotning ko‘rinib turgan qismi uning butun tarkibiga mos kelishi kerak.

**B. Qadoqlash**

Mahsulot yetarli darajada himoya qiladigan tarzda qadoqlanishi kerak. Joylashtirish zichligi qadoqning o‘lchami va turini hisobga olgan holda oqilona bo‘lishi, unda bo‘shliqlar qolmasligi va mahsulotning ezilishiga yo‘l qo‘yilmasligi lozim.

Qadoq ichida qo‘llaniladigan materiallar toza bo‘lishi hamda mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdo tavsiflari tushirilgan qog‘oz va tamg‘alar kabi materiallardan foydalanishga, bosma yoki markirovka ishlari zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yelim yordamida bajarilgan taqdirda, yo‘l qo‘yiladi.

Qadoqlar har qanday begona aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKU0OQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

## VI. Tamg‘alashga oid qoidalar

Har bir qadoqning[2] bir tomonida aniq, o‘chmaydigan shaklda va tashqaridan ko‘rinadigan qilib bir guruhga jamlangan quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

### A. Identifikatsiya

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportchi:

Nomi va yuridik manzili (masalan, ko‘cha/shahar/hudud/pochta indeksi hamda, agar kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi) yoki bunday tizimni qo‘llayotgan mamlakat BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi Kod belgilari[3] reyestriga[4] kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi. Ko‘cha nomi va uy raqami mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridk manzil sifatida fermer xo‘jaligi yoki obyektning nomi, eng yaqin qishloq, shahar, viloyat va pochta indeksi ko‘rsatilishi mumkin; yoki GPS koordinatalari hamda abonent pochta qutisi raqami eng yaqin shahar, viloyat va mamlakat nomi bilan birgalikda taqdim etilganda yuridik manzil sifatida qabul qilinadi.[5]

### B. Mahsulot tavsifi

• Agar qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa: “Salat barglari”, “Moydor boshli salat barglari”, “Bataviya”, “Qarsildoq boshli salat barglari (Aysberg)”, “Romen salati”, “Bargli salat barglari” (yoki zaruratga qarab va mos kelganda, masalan: “Eman bargli”, “Lollo bionda”, “Lollo rossa”), “Jingalak bargli endiviy”, “Keng bargli (Bataviya) endiviy” yoki ularga tenglashtirilgan nomlar;

---

[2] Ushbu markirovkalash talablari mazkur ma’lumotlar ko‘rsatilgan tashqi qadoq ichiga joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq, ular alohida sotuvga taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu markirovka qoidalari yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlarga ega bo‘lgan o‘ramlar ichiga joylashtirilgan sotuv o‘ramlariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Biroq, ular alohida taqdim etiladigan sotuv o‘ramlariga (qadoqlarga) nisbatan tatbiq etiladi.

[3] Bir qator mamlakatning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Biroq, kodli belgi qo‘llanilgan taqdirda, “qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi (yoki shunga o‘xshash qisqartmalar)” degan havola ushbu kodli belgi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak, shuningdek, agar kodli belgi mahsulot kelib chiqqan mamlakatga tegishli bo‘lmasa, undan oldin uni tan olgan mamlakat/hududning ISO 3166 (alfa-2) standarti bo‘yicha kodi keltirilishi kerak.

[4] http://www.unece.org/trade/agr/codemarkregistry.html havolasiga qarang.

[5] Amerika Qo‘shma Shtatlarining pochta qutisi (PO Box) manzilidan foydalanish bo‘yicha maxsus sharti mavjud, chunki bu obyektni tekshirish yoki mahsulotlarni qaytarib olish holatlarida tezkor choralar ko‘rish imkonini bermasligi mumkin hamda qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchiga taalluqli milliy markirovka talablarining qismi hisoblanmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #K2I0WKUDOQ - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

• Tegishli hollarda — “himoyalangan gruntda yetishtirilgan” yoki shunga o‘xshash boshqa muqobil ibora

• Navning nomi (ixtiyoriy)

• Navlari, tijorat turlari va/yoki ranglari bir-biridan yaqqol farq qiladigan salat barglari va/yoki endiviylar aralashmasi uchun «Salat barglari/endiviylar aralashmasi» yoki shunga teng ma'nodagi boshqa nom. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmaydigan bo‘lsa, qadoq ichidagi mahsulotlarning navlari, tovar turlari va/yoki ranglari hamda ularning har birining miqdori ko‘rsatilishi lozim.

**C. Mahsulotning kelib chiqishi**

Kelib chiqish mamlakat[6] va, ixtiyoriy ravishda, mahsulot yetishtirilgan tuman (hudud) yoki milliy, mintaqaviy yoxud mahalliy geografik nom.

Turli mamlakatlardan keltirilgan, aniq farq qiluvchi har xil navlardagi, tovar turlaridagi va/yoki ranglardagi salat barglari va/yoki endiviylar aralashmasi bo‘lgan taqdirda, har bir kelib chiqish mamlakati to‘g‘risidagi ma’lumot tegishli nav, tovar turi va/yoki rang nomi yonida ko‘rsatilishi lozim.

**D. Tijorat tavsiflari**

• Tovar sinfi

• Donaning minimal vazni yoki dona soni bilan ifodalangan o‘lchami

**E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)**

1961-yilda qabul qilingan
So‘nggi marta 2012-yilda qayta ko‘rib chiqilgan
2023-yildagi standart tuzilmasiga muvofiqlashtirilgan

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT / OECD) Mevalar va sabzavotlar bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash sxemasi doirasida ushbu standartning amaliyotda qo‘llanilishi bo‘yicha tushuntirish beruvchi illyustratsiyali risola nashr etilgan. Mazkur nashrni IHTTning (OECD) kitob do‘konidan quyidagi manzil orqali xarid qilish mumkin: www.oecdbookshop.org.

[6] Mamlakatning to‘liq yoki keng qo‘llaniladigan nomi ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI RASMIY VEB-SAYTIDAN 25.09.2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI